

JANNI RODARI VA XUDOYBERDI TUXTABOYEV ASARLARIDA BOLALAR RUHIYATI HAQIDA

Olimjanova Dilafruz Orif qizi

Namangan Davlat Universiteti akademik litseyi ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Janni Rodari va Xudoyberdi Tuxtaboyev asarlarida bolalar ruhiyati haqida, qissa va romanlarining tahlili misolida Xudoyberdi Tuxtaboyev ijodining oziga xos xususiyatlari, ozbek bolalar adabiyoti taraqqiyotida tutgan orni va roli jahon bolalar adabiyotidagi nasriy asarlar qiyosi asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *bolalar prozasi, badiiy sujet, kompozitsiyon tugallik, germeneytik tahlil, badiiy matn, qiyosiy tahlil, ijodiy tendensiya, mantiqiy tafakkur, tahlil va talqin, jahon adabiyoti.*

Har qanday milliy adabiyotda bolalar adiblari nisbatan kamchilikni tashkil etadi. Bu bejiz emas. Bolajonlarga atab asar bitish uchun ijodkordan katta salohiyat, bag'rikenglik talab etiladi. Salohiyatni-ku, mehnat va izlanish evaziga kuchaytirish mumkindir, biroq ko'ngilni muayyan o'zanga solish anchayin qiyin. Jajji kitobxonlarning qalbini zabt etish uchun bolalar adibi bo'lib tug'ilish kerak! Bunday saodat esa har qanday qalamkashga ham nasib etavermaydi. Italiyalik mashhur adib Janni Rodari o'zining yuksak iqtidori va beg'ubor ko'ngli ila jahonning turli mamlakatlarida yashayotgan bolalar qalbiga, ongu shuuriga yo'l topgan ardoqli adiblardan biridir.

Turgan gapki, Janni Rodari ham bola bo'lgan, biroq umrining eng beg'ubor lahzalari quvonchga to'la kechmagan. 1920 yil 23 oktyabrda Italiyaning Omeniya shaharchasida o'rtahol novvoy oilasida dunyoga kelgan Janni go'dakligidayoq otasidan ayriladi. Ushbu musibatdan keyin ko'p o'tmay onasi uch o'g'lini (Janni oilaning kenjasi edi) olib, tug'ilib-o'sgan qishlog'i – Varesottoga jo'naydi.

O'rta maktabdan so'ng uch yillik seminariyani bitirgan Janni Rodari 17 yoshidan qishloq maktabida boshlang'ich sinflarga dars bera boshlaydi. 1939 yilda Milan universitetnig filologiya fakulitetiga o'qishga kiradi. Uning talabalik yillari Ikkinchi jahon urushi davriga to'g'ri kelgandi. Akalari Chezare va Mario fashistlarga qarshi urushga o'tlanadi. Janni akalariga qaraganda nimjon va kasalvand edi, shu bois ham uni frontga olishmaydi. Ko'p o'tmay, Rodarilar xonadoniga sovuq xabar keladi: Chezare urushda halok bo'lgandi...

Shundan so'ng J.Rodari mamlakatda fashistlar tuzumiga norozilik sifatida yuzaga kelgan Qarshilik harakatiga a'zo bo'ladi. Bolalikning og'ir damlari, ketma-ket kelgan musibat, siyosiy harakatdagi faollik Rodarini erta ulg'aytirgan bo'lsa-da, biroq uning qalbidagi beg'uborlikka putur etkazolmaydi. U dunyoni bolalardek ma'sum nigoh bilan ko'ra olardi. Buning natijasi o'laroq, 1948 yilda Rodari “Unita” gazetasiga muxbir

bo'lib ishga kirib, o'sha yildan e'tiboran kichkintoylarga atab kitoblar yoza boshlaydi. 1950 yildan Rimda tashkil etilgan "Pioniere" bolalar jurnaliga bosh muharrir etib tayinlanadi. 1951 yilda uning ilk kitobi "Quvnoq she'rlar" dunyo yuzini ko'radi. So'ng adib butun dunyo bolalarining mehrini qozongan "Chipollinoning sar- guzashtlari" asarini yaratadi. Bu asar asosida dastlab multifilm, keyin esa badiiy filmlar suratga olinadi. Tez orada Rodarining "Jelissimo yolg'onchilar mamlakatida", "Osmon va zamindagi she'rlar", "Yangi yil archalari sayyorasi", "Samodagi tort", "Bekorchi laqabli Jovanninoning sarguzashtlari" singari asarlari bolalar kitob javonidan joy oladi. Uning asarlari bir qator tillarga tarjima qilina boshlaydi.

Janni Rodarining ertaklari o'zbek tiliga ham o'girilgan, uning g'aroyib ijod olamidani bizning bir necha avlod bolalari ham bahramand bo'lishgan. «Quvnoq she'rlar kitobi», «Chipollinoning boshidan kechirganlari» «Moyiy o'q sarguzashtlari», «Jelissimo Yolg'onchilar mamlakatida», «Telefonda aytilgan ertaklar» kabi kitoblar allaqachon jahon bolalar adabiyoti durdonalariga aylangan. Janni Rodari nafaqat shoir, yozuvchigina emas, balki ajoyib pedagog, katta harflar bilan yoziluvchi USTOZ ham edi. U jahon adabiyoti muxlislari tomonidan e'tirof etilgan, faxrli xalqaro Xans Xristian Andersen mukofoti sohibi ham bo'lgan. Quyida biz e'tiboringizga havola etayotgan maqola adib vafotidan so'ng Rimda chiqadigan «Rinashita» (muallifi Lyuchio Lombardo Radiche) gazetasida e'lon qilingan. Hassos ijodkor, ajoyib pedagogga bag'ishlangan ushbu maqoladagi o'ziga xos fikrlar bizning adabiyot muxlislarimiz uchun ham qiziqarli bo'ladi, degan umiddamiz. Agar latifaga o'xshab ketadigan voqeaga diqqat qilinsa, Janni Rodari o'zining ilk filastrokkilari (quvnoq bolalar she'rlari)ni Milanda chop etiladigan «Unita» gazetasi tahririyatida ishlab yurganida, tunda navbatchilik qilgan kezlari to'qigan ekan. Yosh o'qituvchi bir necha muddat gazetada muxbirlik ham qilgan. Aynan ana shu filastrokkilari bilan Janni Rodari xonadonlarga kirib keladi, she'rlarining samimiy ruhiyati, yengil epkini bilan bolalar ko'ngillarini zabt etadi, necha-necha oilalar a'zosiga aylanadi. Rodarining filastrokkilari tabiiy va uzviy tarzda oilamiz lug'atiga kirib keladi: yosh shoir-o'qituvchi bolalar va kattalarning kundalik turmushidagi haqiqat va she'riyatni ajoyib tarzda nozik va teran his qiladi.

Janni Rodari bitgan filastrokkilar bolalar uchun vatanparvarlik hamda ma'naviy tarbiyaning ilk sabog'i bo'lib xizmat qiladi. Rodari filastrokkilaridagi ana shu tendentsiyalar keyinchalik uning ijodidagi asosiy yo'nalish bo'lib qoladi. Ana shu tendentsiyalar Jelissimo, Chipollino, Pomidor haqidagi ertak-rivoyatlarda yetakchilik qiladi, tinchlik, ozodlik va adolat uchun bo'lg'usi kurashchilarni tarbiyalab voyaga yetkazadi. Rodari ijodiy olami rang-barang, uning asarlarini o'qiganing sari yangi-yangi ma'nolarni kashf etaverasan kishi.

Har qanday yozuvchi, xoh kattalar, xoh bolalar uchun yozsin, insondagi nimanidir tasdiqlagisi, nimanidir inkor qilgisi keladi. Tasdiqlab turib inkor qiladi, inkor qilaturib tasdiqlaydi. Xuddi ana shu ruhiy, axloqiy holatni yozuvchilar ijobiy yo salbiy

obrazlar orqali ko'rsatishadi. Demak, yozuvchi o'z asarida ijobiy obrazlarni yaratarkan o'ziga hamdard axtaradi, aytmoqchi bo'lgan fikrlarini mana shu obraz orqali yo tasdiqlaydi, yo inkor qiladi. Xuddi shu paytda bir gap esimga tushib ketdi. Birov menga "Kattalarga aytgan gaping, ular beparvo bo'lganlari uchun, tarvuzning ustidan quyilgan suvdek o'tib ketadi", deb aytgan edi. Bola zoti esa tamomila o'zgacha xilqat. Agar u senga mehr qo'ysa, sen aytgan gapni, jon qulog'i bilan tinglaydi, shu gapni sendan eshitgani uchun maqtanib ham yuradi. Xuddi ana shu ma'noda buyuk Andersen hamdard sifatida bolalarni tanlagan bo'lishi mumkin. Bolalar achinmaydilar, achinishni bilmaydilar, degan fikr menimcha bahsli, munozaralidir. Chunki bolalar buyuk ertakchini tushunganlari va unga achinganlari uchun ham uning asarlarini salkam ikki yuz yildan buyon qo'ldan qo'ymay o'qib kelmoqdalar.

Xudoyberdi To'xtaboyev zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotining yetakchi vakillaridan biri. U 1932-yil 17-dekabrda Farg'onaviyotining Katta Tagob qishlog'ida tug'ilgan. Otadan juda ertayetim qolgan Xudoyberdi bobosi Erkaboy va buvisi Robiyabibilarni tarbiyasida o'sadi. 1949-yili Qo'qon pedagogika bilim yurtini, 1955-yili Toshkent davlat universiteti (hozirgi Milliy universitet) nabitirgan. So'ng bir necha yil Farg'ona viloyatining Bag'dod, O'zbekiston tumanlaridagi maktablarda o'qituvchi, ilmiy bo'lim mudiri, maktab direktori lavozimlarida ishlagan. Bo'lg'usi adib 1958-yili Toshkentga keladi. 12 yil davomida turli gazetalarda ishlaydi, hozirjavob, qalami o'tkir jurnalist sifatida elga taniladi. Jamiyatdagi illatlar-ni fosh etuvchi 300 dan ortiq feleton yozadi. 70-yillar boshida o'z ijodiy faoliyatini bolalar hayotini keng tasvirlagan asarlar yaratishga yo'naltiradi. Yozuvchi o'zining tarjimai holida bu qarorini shunday izohlaydi: «Ruhi dunyosi pok bo'lgan, tarbiyaga quloq soladigan, savob va gunohni bilishga intiladigan, ruhi go'zallikka talpinayotgan bolalar dunyosida ishlasam qanday bo'lar ekan, deb o'ylay boshladim va qaror ham qabul qildim, bolalar, o'smirlar dunyosiga paqqoso'tib ketdim». Darhaqiqat, adib, uzoq yillar yozuvchilik iste'dodini bolalar va o'smirlarning ma'naviy tarbiyasiga bag'ishladi. U ana shu maqsadda yoshlar nashriyoti, "Gulxan", "Yosh kuch" jurnallarida faoliyat ko'rsatib, o'zi e'tirof etganidek, "...Bola va o'smir ruhidagi go'zallikni himoyalashga e'tibor" berib keldi. Yozuvchi tinimsiz mehnati, izlanishlari, bolalarga cheksiz mehr-muhabbati tufayli, o'zbek bolalar adabiyotining zabardast namoyandasiga aylandi. Adib qalamigamansub "Omonboy va Davronboy sarguzashti" qissasi (1974-yil), "Sariq devni minib" (1968-yil), "Sariq devning o'limi" (1973-yil), "Besh bolalik yigitcha" (1976-yil), "Qasoskorning oltin boshi" (1981-yil), "Yillar va yo'llar" (1983-yil), "Shirin qovunlar mamlakati" (1986-yil), "Mungli ko'zlar" (1988-yil), "Jannati odamlar" (1996-yil) kabi romanlari ana shu xayrli faoliyat mevalaridir.

Bolalar adabiyoti yosh kitobxon qalbi va ongiga chuqur ta'sir etuvchi omillardan hisoblanadi. Shu ma'noda bolalar uchun yaratilgan har bir asar tarbiya qiluvchi vazifasini ham o'taydi.



FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Toxtaboev X. Munqli kozlar, – Tashkent.: Yangi asr avlodi, 2020.
2. Toxtaboev X. Besh bolali yigicha, – Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2019.
3. Toxtaboev X. Sarik devni minib, – Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2015.
4. Safarov O., Jamilova B., Safarova N. Bolalar adabiyoti va folklor. -Toshkent: "Turon-zamin ziyo". 2015.
5. Матчонов С. (2020). Адабиёт дарсларида таҳлил ва талкин уйғунлиги. Тил ва адабиёт таълими. 7(7), 8-11.
6. Shermatova U. (2020). The light of nights without a day. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 4(4), 112-117.